



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 21-oktabr

567-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 18-oktyabrda “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Bojxona tartib-taomillari yanada takomillashtirilganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish, shuningdek, ba’zilarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblash to‘g‘risida” 2024-yil 4-oktabrdagi 630-son qarori ijrosi to‘g‘risida”gi 483-6-0-Q/24-sonli qarori haqida

O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksiga bojxona tartib-taomillarini yanada takomillashtirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonuniga va bojxona chegarasi orqali olib o‘tiladigan tovarlarning bojxona qiymatini aniqlash bilan bog‘liq ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni o‘zaro muvofiqlashtirish hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Bojxona tartib-taomillari yanada takomillashtirilganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish, shuningdek, ba’zilarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblash to‘g‘risida” 2024-yil 4-oktabrdagi 630-son hamda Namangan viloyati hokimining 2024-yil 18-oktyabrdagi 483-6-0-Q/24-sonli qarorlari ijrosini ta’minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

- Namangan viloyati hokimining 2024-yil 18-oktyabrdagi 483-6-0-Q/24-sonli qarori asos va amalda bajarish uchun qabul qilinsin.
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 4-oktabrdagi 630-son qarori bilan: O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining 1-ilovaga muvofiq ayrim qarorlariga quyidagilarni nazarda tutuvchi o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilganligi:
 - milliy avtotashuvchilar tomonidan import tovarlarni bojxona nazorati ostida tashish uchun talab etiladigan litsenziya kartochkasini taqdim etish amaliyotini bekor qilish;
 - karantin ostidagi mahsulotlarni respublika hududiga olib kirishda nazorat tartib-taomillarini kuchaytirilgan tarzda amalga oshirish;
 - bojxona organiga taqdim etiladigan hisob-fakturada (invoysda) ko‘rsatilishi lozim bo‘lgan minimal ma’lumotlar ro‘yxatini tasdiqlash;
 - davlat foydasiga voz kechish bojxona rejimiga rasmiylashtirilgan mol-mulklarni boshqarish bo‘yicha vakolatli organi “Bojxona-servis” davlat muassasasi etib belgilashi;O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining 2-ilovaga muvofiq ayrim qarorlari o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.
- Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimning moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari – iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i A.Abdusalomov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov